DOI

Suyunov O.J.
Samarqand davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi dotsenti
Abduraximov M.N.
Samarqand davlat universiteti, 4-kurs, (amaliy) psixologiya yo'nalishi talabasi

PSIXOLOGIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Maqoladaildiolada oliy o‘quv yurtlarida o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiris uchunpedagogik mahorat asoslaridan unumli foydalanish yo’llari hamda muammoli ta’lim asosida darslarni tashkil etish zarurati ko’rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *bilim, vaziyat, vaziyatli tahlil, kasb, muammoli vaziyat, ta’lim olish, ta’lim berish, o‘qitish, evristik o‘qitish, modulli o‘qitish, intellekt, o‘qitish turlari.*

Suyunov O.J.
associate professor
Department of Psychology
Samarkand State University
Abdurakhimov M.N.
4th year student
(practical) psychology
Samarkand State University

USING THE FUNDAMENTALS OF PEDAGOGICAL SKILLS IN ORGANIZING PSYCHOLOGY LESSONS

Abstract. *The article discusses ways to effectively use the basics of pedagogical skills and the need to organize lessons based on problem-based learning to increase the effectiveness of the educational process in higher education.*

Keywords: *Knowledge, Situation, Situational Analysis, Profession, Problem Situation, Learning, Teaching, Heuristic Learning, Modular Learning, Intelligence, Types of Teaching.*

Kirish. Zamonaviy, ilg’or o’qituvchilarning ta’lim-tarbiya sohasida erishgan umumpedagogik tajribalari - qobiliyat va mahoratlari ta’lim jarayonini qanchalik ustalik bilan tashkil etishida baholanadi.

Dalillar shuni ko rsatadiki, qiziqish va ishtiyoq bilan dars olib borgan ma’ruzachilar talabalarni ta’lim olish borasida rag’batlantirishda katta yutuqlarga erishishgan. Bu kabi izlanishlar samarali ta’lim beruvchi

https://wordlyknowledge.uz

ma'ruzachilarni faqatgina ma'lumot beruvchi emas, balki talabalarga haqiqiy ilm berishini qayd etadi. Samarali va ajoyib tashkil etilgan ma'ruza PowerPoint taqdimoti nusxasini olib yurgandan ko'ra afzalaroq ekanini va ma'ruza o'rnini bosa olmasligini alohida aytib o'tish lozim.[9]

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, uning oldiga juda qisqa muddatda yangicha fikrlovchi, respublika ravnaqi, taraqqiyoti uchun ongli ravishda kurashuvchi etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasi ko'ndalang qo'yildi. Yetuk mutaxassis va yangicha fikrlovchi shaxslarni shakllantirish uchun chuqur bilimning o'zigina kifoya qilmasligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bizga ta'lim muassasasini bitirganlar emas, ta'lim muassasasi tarbiyasini ko'rganlar kerak". Bu bilan Prezident bilimlar yig'indisini egallashga emas, balki ularni egallab, turli kasb-hunarlar siri, mahoratini o'zlashtirishga xizmat etuvchi bilimlarni o'rganish lozimligini ko'rsatib berdi.

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejizga emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"[10].

Oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan innovatsiyalarni mamlakatimiz ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga tadbiq etish va ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik mahorat asoslaridan unumli foydalanishga bogliq boladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo'ladi. Ba'zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F.Gonobolin, N.Kuzmina), pedagoglik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi;

1. O'rtaga tusha bilish.
2. Tashkilotchilik.
3. O'zini idora eta bilish.
4. Mo'ljallay olish, chamalay bilish.
5. Kuchlilik, zehnlilik.
6. Faoliyatga ijodiy yondashish.

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo'lgan, insonparvarlik nuqtai-nazaridan turib yondashilgan taqdirdagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin.

---

[9] A handbook for teaching and learning in higher education : enhancing academic practice / [edited by] Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. 3rd ed. p. cm. pp: 61.

[10] O zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. // www.uza.uz

https://wordlyknowledge.uz

Professor N.Azizxo‘jaeva ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogik mahorat asoslaridan unumli foydalanish uchun muammoli vaziyatlardan foydalanishni tavsiya etadimuammoli vaziyat o‘quvchi-talabalarga ma’lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarshiliklar bo‘lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining yetishmasligidir.Bu qarama-qarshiliklar tushunmovchiliklar ijodiy bilimlarni o‘zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.[11]O‘quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o‘zlarining nazariy jihatdan tushunib yetishlari o‘rtasida bilimlarining yetishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.[12]

Pedagogik muloqot deganda, odatda, o‘qituvchining o‘quvchi bilan dars mobaynida va darsdan tashqari bo‘ladigan aniq pedagogik funksiyalarga ega va qulay psixologik muhitni yaratish, shuning bilan birga, boshqa xildagi psixologik optimal ilmiy faoliyat va pedagog bilan o‘quvchilar uchun o‘rtadagi munosabatlar uchun yonaltirilgan professional muloqot shakli tushuniladi (A.A.Leontev).

Tadqiqot metodologiyasi. Biz ushbu pedagogic tadqiqotimiz davomida izlanish metodidan keng foydalandik. O‘z navbatida izlanish metodlari 2 xil bo‘ladi: nazariy va empirik.

Nazariy izlanish metodlariga: analiz, sintez, modellashtirish, konkretlashtirish kiradi. Empirik izlanish metodi: birlamchi va umumiy metodlarga bo‘linadi.

Birlamchi metodlarga – kuzatish, og‘zaki so‘rash, suhbat, yozma so‘rash, mutaxassislar bahsi, testlar kiradi.

Umumiy izlanish metodiga – tashxis qilishni o‘rganish, pedagogik tajribani umumlashtirish va tajriba kiradi. Bu metodlar malakaviy pedagogikada keng tarqalgan bo‘lib, ishchi-xodimlarning malakasini aniqlash, kasbiy muammolarni hal etishda keng tarqalgan Ish faoliyatini o‘rganishda bajarayotgan ishning umumiy unumdorligini aniqlashda ish xulosasini o‘rganuvchi tavsifnoma yordamida o‘rganiladi.

Tahlil va natijalar. Biz tomonimizdan ko‘rib chiqilgan seminar tiplari talabalarni muammoli o‘qitishga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan va bir qancha pedagogik vazifalarni bajarishga qaratilgan mashg‘ulotlar tizimidan iborat bo’ldi. *Talabalarda o’qishga bo’lgan qiziqishni uyg’otish va shakllantirish ta’lim olishga bo’lgan motivatsiyani kuchaytirishi ehtimoldan holi emas. Ma’ruzalarning boshlang’ich qismi eng muhim masala hisoblanib, talabalarni ishontiruvchi va ushbu ma’ruzani eshitishlari kerakligini ifodalaydi.*

Muammoli savolga javob topishni qidirishni tashkil etish o‘zida muntazam qo‘yilgan qadamlar modulini birlashtirdi. Ular quyidagilar:

1) muammoli savolni qo‘yish;

[11] J.Yo’ldoshev, S.Xasanov Pedagogik texnologiya” – T.: TMI, 2014 yil.
[12] Azizxodjayeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” – Toshkent.: 2012 yil, 233-bet.

https://wordlyknowledge.uz

2) qo‘yilgan savollarga javob topish va asoslash bo‘yicha talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;

3) javoblarning tanqidiy tahlilini tashkil etish, ularning kuchli va kuchsiz jihatlarini aniqlash;

4) kelishilgan mavqe (pozitsiya)ni ishlab chiqish – eng to‘g‘ri javobni konstruksiyalash maqsadida javoblarni o‘zaro qiyos qilishni tashkil etish;

5) *keyingi muammoli savolni qo‘yishga o‘tish.*

Muammoli ta’lim jarayonida pedagog boshchiligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o‘quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko‘nikma va malakalarni ijodiy o‘zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, oliy o‘quv yurtlarida o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida foydalanib kelinayotgan innovatsiyalarni mamlakatimiz ta’lim muassasalarining o’quv jarayoniga tadbiq etish va ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogik mahorat asoslaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limda muammoli o’qitish texnologiyasidan foydalanish esa ta’lim jarayonini amalga oshirishda universal vosita xisoblanadi. Bu texnologiya talabalar vaziyatli masalani izlash faoliyatiga, muammoni ifodalash va yechishga tayyorlangandagina samarali bo’ladi. Demak, muammoli o‘qitish bu o‘qitishning pedagogik texnologiyasi bo‘lib, o‘zining mazmuni va tuzilmasi bo‘yicha o‘qituvchi va talabaning ijodiy jarayonlarini sintezlaydi.Muammoli o‘qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o‘quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko‘chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo‘ladi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogik mahorat asoslaridan hamda muammoli ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanish o‘quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy, amaliy faoliyatlarida samarali o‘zlashtirishga yordam beradi, O‘zlashtirgan yangi bilimlari esa kelajakda ta’lim muammolarini yecha bilish, mustaqil izlanishga o‘rgatish, ijodiy tajribaga ega bo‘lish va uni rivojlantirish, ta’lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta’limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. J.Yo’ldoshev, S.Xasanov “Pedagogik texnologiya” – T.: TMI, 2014 yil.
2. Suyunov O.J. USING THE BASIS OF PEDAGOGICAL SKILLS IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS.НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ «АРХИВАРИУС» Том 7, № 4 (58)/2022 ISSN 2524-0935, Kiev-2022.
3. Suyunov O.J.. ИННОВАЦИИ-ЗАЛОГ УСПЕШНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИJurnal Science and innovation. 11.12.2022DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.74241491.
4. Suyunov O.J.ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ УВЕРЕННОСТЬЮ В СЕБЕ И ЛИЧНОСТНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ У СТУДЕНТОВ. Jurnal Science and innovation 11.12.2022DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.74241491.

https://wordlyknowledge.uz